



FARG'ONA VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI



**FARG'ONA VILOYATIDAGI
KORXONA VA TASHKILOTLAR
DEMOGRAFIYASI BO'YICHA
MA'LUMOT**

*2023- yil 1- sentabr holatiga ko'ra
(fermer va dehqon xo'jaliklarisiz)*

*Ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi
Adliya vazirligi Davlat xizmatlari markazi
ma'lumotlar bazasi asosida shakllantirildi*

So‘nggi yillarda hukumatimiz tomonidan mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, faol tadbirkorlik, innovatsion g‘oyalar va bunyodkorlik salohiyatini qo‘llab-quvvatlash orqali aholiga munosib hayot sharoitlarini yaratish, ishbilarmonlik muhitini yaxshilash, bandlikni ta’minlash bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar amalga oshirib kelinmoqda.


Xususan, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik mamlakatimiz iqtisodiyotining asosiy bo‘g‘ini hisoblanib, bugungi kunda mazkur sohani jadallik bilan rivojlantirish, tadbirkorlar faoliyatini qo‘llab-quvvatlash, ularning safini yanada kengaytirish va rag‘batlantirish bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilyapti.

Jumladan, 2023-yil 1-sentabr holatiga viloyatimizda faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning soni (fermer va dehqon xo‘jaliklaridan tashqari) 41,9 mingtani tashkil etdi (ulardan kichik korxona va mikrofirmalar 35,6 mingta). O‘tgan yilning mos davriga nisbatan faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar sonining o‘sishi 82,8 foizni (jumladan, kichik korxona va mikrofirmalar 80,6 foiz) tashkil etdi.

**Korxona va tashkilotlar to‘g‘risida umumiylumotlar
*fermer va dehqon xo‘jaliklaridan tashqari, 1- sentabr holatiga ko‘ra, birlikda.***

Faoliyat ko‘rsatayotgan

Ro‘yxatdan o‘tgan




Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar

2023- yil yanvar-avgust holatiga ko'ra, birlikda

Yillar kesimida soni

2023	5 758
2022	5 921
2021	6 265
2020	4 100
2019	5 614


Yangi tashkil etilganlarning faoliyat
ko'rsatayotganlarga nisbati (foizda)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi



Sanoat



Qurilish



Savdo



Tashish va saqlash



Yashash va ovqatlanish



Axborot va aloqa



Sog'linqni saqlash va
Ijtimoiy xizmat ko'rsatish



Boshqa turlar

2023- yil yanvar-avgust oylarida yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar soni 2020- yilning mos davri bilan solishtirilganda 1 658 taga ko'payganligini ko'rish mumkin.

Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar sonining tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha 2020- yilning mos davri bilan solishtirilganda, mas'uliyati cheklangan jamiyatlar 1 660 taga ko'paygan.

Hududlar kesimida

Farg'ona shahar	1 082	15,7 %	Uchko'prik tumani	229	10,8 %
Qo'qon shahar	475	10,8 %	O'zbekiston tumani	224	11,9 %
Marg'ilon shahar	411	11,6 %	Beshariq tumani	209	13,9 %
Toshloq tumani	356	17,9 %	Farg'ona tumani	198	10,4 %
Quvasoy shahar	356	22,6 %	Rishton tumani	195	11,8 %
Quva tumani	339	16,8 %	Yozyovon tumani	176	16,8 %
Oltiariq tumani	284	12,5 %	Furqat tumani	173	15,0 %
Dang'ara tumani	264	13,6 %	Qo'shtepa tumani	155	10,8 %
Buvayda tumani	252	14,0 %	So'x tumani	149	13,5 %
Bag'dod tumani	231	14,1 %			

2023- yil 1- sentabr holatiga ko'ra, birlikda

Yillar kesimida soni

2023		41 898
2022		50 586
2021		46 384
2020		38 329
2019		34 298

Yillar kesimida o'sish sur'ati (foizda)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi



Sanoat



Qurilish



Savdo



Tashish va saqlash



Yashash va ovqatlanish



Axborot va aloqa

Sog'liqni saqlash va
Ijtimoiy xizmat ko'rsatish

Boshqa turlar

2023- yil 1- sentabr holatiga faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni so'ngi besh yilda (28 063 ta) 13 835 taga ko'payganni quyidagi sohalarda korxonalar sonining sezilarli ko'paygani bilan ifodalash mumkin: savdo – 5 984 tadan 14 183 taga (o'sish 8 199 ta), qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – 1 472 tadan 1 777 taga (o'sish 305 ta), sanoat – 5 961 tadan 7 813 taga (o'sish 1 852 ta).

Hududlar kesimida

Farg'onsha shahar	6 889	Buvayda tumani	1 805
Qo'qon shahar	4 400	Rishton tumani	1 656
Marg'ilon shahar	3 537	Bag'dod tumani	1 634
Oltiariq tumani	2 277	Quvasoy shahar	1 603
Uchko'prik tumani	2 126	Beshariq tumani	1 504
Quva tumani	2 021	Qo'shstepta tumani	1 431
Toshloq tumani	1 991	Furqat tumani	1 151
Dang'ara tumani	1 941	So'x tumani	1 105
Farg'onha tumani	1 897	Yozyovon tumani	1 049
O'zbekiston tumani	1 881		


Yangi tashkil etilgan tadbirkorlik subyektlari to‘g‘risida ma’lumotlar

2023- yil yanvar-avgust holatiga ko‘ra, birlikda


Yillar kesimida soni

2023		5 640
2022		5 762
2021		6 100
2020		4 006
2019		5 401


**Yangi tashkil etilganlarning faoliyat
ko‘rsatayotganlarga nisbati (foizda)**



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi



Sanoat




Qurilish



Savdo



Tashish va saqlash



Yashash va ovqatlanish



Axborot va aloqa



Sog‘liqni saqlash va
ijtimoiy xizmat ko‘rsatish



Boshqa turlar

Davlatimiz tomonidan tadbirkorlik subyektlariga qulay shart-sharoitlar yaratib borish bo‘yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar natijasida ularning yildan-yilga investitsiya va ishbilarmonlik muhiti yaxshilanib borayotgani namoyon bo‘lmoqda.

2023-yil yanvar-avgust oylarida yangi tashkil etilgan tadbirkorlik subyektlari soni 5 640 ta bo‘lib, shundan:

- mikrofirmalar va kichik korxonalar 5 629 ta;
- yirik korxonalar 11 tani tashkil etdi.

Hududlar kesimida


Farg‘ona shahar	1 052	17,9 %	Uchko‘prik tumani	227	12,1 %
Qo‘qon shahar	463	12,0 %	O‘zbekiston tumani	218	13,8 %
Marg‘ilon shahar	403	12,7 %	Beshariq tumani	204	16,7 %
Toshloq tumani	355	20,0 %	Farg‘ona tumani	195	12,4 %
Quvasoy shahar	353	24,9 %	Rishton tumani	191	14,3 %
Quva tumani	329	19,3 %	Yozyovon tumani	170	20,2 %
Oltiariq tumani	278	13,9 %	Furqat tumani	165	17,4 %
Dang‘ara tumani	260	15,4 %	Qo‘shtepa tumani	152	12,7 %
Buvayda tumani	249	16,1 %	So‘x tumani	147	15,7 %
Bag‘dod tumani	229	17,1 %			

2023- yil 1- sentabr holatiga ko‘ra, birlikda

Yillar kesimida soni

2023		35 875
2022		44 443
2021		40 367
2020		32 491
2019		28 449

Yillar kesimida o‘sish sur’ati (foizda)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



Faoliyat ko‘rsatayotgan tadbirkorlik subyektlari soni 2023- yil 1- sentabr holatiga 35,6 mingtaga yetib, 2020- yilning mos davriga nisbatan o‘sish sur’ati 110,4 foizni tashkil etdi (3,4 mingta). Ularning iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha taqsimlanishi (umumiy sonidagi ulushi) quyidagicha bo‘ldi: savdo – 39,5 foiz, sanoat – 21,8 foiz, qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi – 4,8 foiz, qurilish – 8,1 foiz, yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar – 5,8 foiz, tashish va saqlash – 4,4 foiz, axborot va aloqa – 2,4 foiz, sog‘lijni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish – 2,8 foiz, boshqa turlari –10,4 foiz.

Hududlar kesimida

Farg‘ona shahar	5 877	Buvayda tumani	1 544
Qo‘qon shahar	3 845	Quvasoy shahar	1 420
Marg‘ilon shahar	3 183	Bag‘dod tumani	1 337
Oltiariq tumani	1 996	Rishton tumani	1 333
Uchko‘prik tumani	1 878	Beshariq tumani	1 219
Toshloq tumani	1 771	Qo‘shtepa tumani	1 193
Quva tumani	1 705	Furqat tumani	946
Dang‘ara tumani	1 692	So‘x tumani	935
O‘zbekiston tumani	1 582	Yozyovon tumani	842
Farg‘ona tumani	1 577		


Yangi tashkil etilgan kichik biznes subyektlari to‘g‘risida ma’lumotlar

2023- yil yanvar-avgust holatiga ko‘ra, birlikda


Yillar kesimida soni

2023		5 629
2022		5 745
2021		6 092
2020		3 992
2019		5 376

Yangi tashkil etilganlarning faoliyat ko‘rsatayotganlarga nisbati (foizda)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



Mamlakat iqtisodiyotining “sog‘lomligi”ni baholashning muhim omili – kichik biznes subyektlarining samarali faoliyat ko‘rsatishi bo‘lib, bu uning moslashuvchanligi va doimiy o‘zgaruvchan iqtisodiy vaziyatlarga moslasha olish ko‘rsatkichidir.

Shunda, 2023- yil yanvar-avgust oylarida axborot va aloqa sohasida yangi tashkil etilgan kichik biznes subyektlari soni 2022-yilning mos davriga nisbatan 114 tadan 221 taga (o‘sish 107 taga), qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi – 359 tadan 501 taga (o‘sish 142 taga) ko‘paydi.

Hududlar kesimida

Farg‘ona shahar	1 050	18,0 %	Uchko‘prik tumani	227	12,3 %
Qo‘qon shahar	462	12,1 %	O‘zbekiston tumani	218	13,8 %
Marg‘ilon shahar	403	12,7 %	Beshariq tumani	204	16,8 %
Toshloq tumani	353	20,0 %	Farg‘ona tumani	194	12,4 %
Quvasoy shahar	350	24,8 %	Rishton tumani	191	14,4 %
Quvva tumani	329	19,4 %	Yozyovon tumani	169	20,1 %
Oltiariq tumani	278	13,9 %	Furqat tumani	165	17,5 %
Dang‘ara tumani	259	15,4 %	Qo‘shtepa tumani	152	12,8 %
Buvayda tumani	249	16,2 %	So‘x tumani	147	15,8 %
Bag‘dod tumani	229	17,2 %			

2023- yil 1- sentabr holatiga ko‘ra, birlikda

Yillar kesimida soni

2023		35 649
2022		44 207
2021		40 177
2020		32 296
2019		28 283

Yillar kesimida o‘sish sur’ati (foizda)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



Hududiy kesimda eng ko‘p kichik biznes subyektlari Farg‘ona shahrida (16,3 foiz), Qo‘qon shahri (10,7 foiz), Marg‘ilon shahri (8,9 foiz), Oltiariq (5,6 foiz) va Uchko‘prik (5,2 foiz) tumanlarida faoliyat ko‘rsatmoqda. Ushbu hududlarda jami kichik biznes subyektlari sonining 50 foizdan ortig‘i faoliyat ko‘rsatmoqda.

Ma’lumki ayni paytda kichik biznes subyektlari iqtisodiyotning deyarli barcha tarmoqlarida ilg‘or faoliyat yuritmoqda.


Hududlar kesimida

Farg‘ona shahar	5 818	Buvayda tumani	1 539
Qo‘qon shahar	3 809	Quvasoy shahar	1 409
Marg‘ilon shahar	3 172	Bag‘dod tumani	1 331
Oltiariq tumani	1 993	Rishton tumani	1 328
Uchko‘prik tumani	1 853	Beshariq tumani	1 215
Toshloq tumani	1 762	Qo‘shtepa tumani	1 188
Quva tumani	1 696	Furqat tumani	943
Dang‘ara tumani	1 684	So‘x tumani	932
O‘zbekiston tumani	1 577	Yozyovon tumani	840
Farg‘ona tumani	1 560		

Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligidagi faoliyat
ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar to'g'risida ma'lumotlar
2023- yil 1- sentabr holatiga ko'ra, birlikda

Hududlar kesimida


Farg'onsha shahar	146
Quva tumani	141
Toshloq tumani	140
So'x tumani	139
Dang'ara tumani	124
Quvasoy shahar	123
Farg'onsha tumani	120
Oltiariq tumani	107
Qo'shtepa tumani	107
Beshariq tumani	84
Bag'dod tumani	74
Yozyovon tumani	74
Buvayda tumani	72
Uchko'prik tumani	68
O'zbekiston tumani	67
Rishton tumani	57
Qo'qon shahar	50
Marg'ilon shahar	43
Furqat tumani	41



O'zbekiston Respublikasida mamlakatning oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan qishloq xo'jaligini rivojlantirishning chuqur o'ylangan strategiyasi izchil amalga oshirilmoqda.

Davlatimiz iqtisodiy va ijtimoiy islohotlarining muhim tarkibiy qismlaridan biri meva-sabzavot yetishtirishga qaratilgan. Bunday yondashuv aholi ehtiyojlarini to'liq ta'minlash, ularning salomatligini saqlash va bandlik shart-sharoitlarini yaratishda asosiy yo'nalishlardan biriga aylandi.

Baliq ovlash va akvakultura



**O'rmonchilik va yog'och
tayyorlash**

**Dehqonchilik va
chorvachilik, ovchilik va
bu sohalarda xizmat
ko'rsatish**

2023- yil 1- sentabr holatiga ko‘ra, birlikda

Hududlar kesimida

Qo‘qon shahar	948
Farg‘ona shahar	908
Marg‘ilon shahar	763
Uchko‘prik tumani	560
O‘zbekiston tumani	447
Dang‘ara tumani	443
Rishton tumani	400
Toshloq tumani	369
Bag‘dod tumani	362
Buvayda tumani	352
Quva tumani	348
Oltiariq tumani	318
Farg‘ona tumani	277
Qo‘shtepa tumani	245
Quvasoy shahar	242
Beshariq tumani	225
Yozyovon tumani	217
So‘x tumani	195
Furqat tumani	194



Sanoat tarmog‘i iqtisodiy tarmoqlar ichida eng yuqori salohiyatga ega bo‘lgan tarmoqlardan hisoblanadi. So‘nggi to‘rt yil ichida faoliyat ko‘rsatayotgan sanoat korxonalari sonining o‘sish sur’ati 105,1 foizni tashkil etdi.

Sanoat korxonalari soni jami korxona va tashkilotlarning 18,6 foiz ulushini tashkil etdi. Shundan – 95,2 foizini ishlab chiqarish sanoati (o‘tgan yil ning mos davriga nisbatan o‘sish 73,2 foiz), 2,5 foizini tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash (o‘sish 92,8 foiz), 1,0 foizini suv bilan ta’minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilish (o‘sish 61,3 foiz) va 1,3 foizini elektr, gaz bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalash (o‘sish 110,0 foiz) tashki etgan.

Ishlab chiqarish sanoati

7 444

194

Tog‘-kon sanoati va
ochiq konlarni ishlash

Suv bilan ta’minlash,
kanalizatsiya tizimi,
chiqindilarni yig‘ish
va utilizatsiya qilish

76

99

Elektr, gaz, bug‘ bilan
ta’minlash va havoni
konditsiyalash

2023- yil 1- sentabr holatiga ko‘ra, birlikda

Hududlar kesimida

Farg‘ona shahar	768
Qo‘qon shahar	243
Marg‘ilon shahar	222
Uchko‘prik tumani	163
Toshloq tumani	134
Oltiariq tumani	132
Farg‘ona tumani	130
Quva tumani	129
Bag‘dod tumani	124
Quvasoy shahar	101
Yozyovon tumani	97
Dang‘ara tumani	96
O‘zbekiston tumani	95
Rishton tumani	92
Buvayda tumani	90
Qo‘shtepa tumani	83
Beshariq tumani	77
So‘x tumani	71
Furqat tumani	68

2 915

2023

3 810

2022

3 577

2021

3 125

2020

2 797

2019


O‘zbekistonda qurilish sanoati iqtisodiyotning ustuvor tarmog‘i sifatida belgilangan. Qurilish sanoatining yo‘nalishlari bo‘yicha o‘tkazilgan tahlil shuni ko‘rsatdiki:

- binolar va inshootlar qurish yo‘nalishi 53,8 foiz ulushni tashkil etib, o‘sish sur’ati o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 74,4 foiz o‘sish sur’atini tashkil etdi;

- fuqarolik obyektlarini qurish yo‘nalishi 15,8 foiz ulushni tashkil etib, o‘sish sur’ati o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 97,1 foiz o‘sish sur’atini tashkil etdi;
- ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari yo‘nalishi 30,4 foiz ulushni va 72,1 foiz o‘sish sur’atini tashkil etdi.


461

Fuqarolik
obyektlarini qurish



885

Ixtisoslashtirilgan
qurilish ishlari



1 569


Bino va
inshootlar qurish



2023- yil 1- sentabr holatiga ko'ra, birlikda

Hududlar kesimida

Farg'ona shahar	1 833
Qo'qon shahar	1 569
Marg'ilon shahar	1 355
Uchko'prik tumani	824
Toshloq tumani	745
Dang'ara tumani	717
Oltiariq tumani	715
Quva tumani	704
Farg'ona tumani	675
Buvayda tumani	661
O'zbekiston tumani	619
Quwasoy shahar	605
Qo'shtepa tumani	538
Beshariq tumani	508
Bag'dod tumani	507
Furqat tumani	455
Rishton tumani	433
So'x tumani	396
Yozyovon tumani	324



Tahlillar shuni ko'rsatdiki, viloyatimizda faoliyat ko'rsatayotgan har uchinchi korxona savdo sohasida faoliyat yuritadi, ularning 99,7 foizi yoki 14 145 tasi kichik biznes subyektlariga to'g'ri keladi.

Savdo sohasining yo'nalishlar bo'yicha taqsimoti quyidagicha:

- avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdo yo'nalishi 58,6 foiz ulushni tashkil etgan bo'lib, 2022- yilning mos davri bilan solishtirilganda o'sish sur'ati 83,9 foizni tashkil etdi;
- avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari ulgurji savdo yo'nalishida 32,1 foiz ulushni tashkil etib, o'sish sur'ati 92,2 foizni tashkil etdi;
- avtomobil va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosi va ularni ta'mirlash yo'nalishida 9,3 foiz ulushni tashkil etib, o'sish sur'ati 78,0 foizni tashkil etdi.

1 324

Avtomobil
va mototsikllarning
ulgurji va chakana
savdosi va ularni
ta'mirlash

4 551

Avtomobil
va mototsikllar
savdosidan tashqari
ulgurji savdo


8 308

Avtomobil
va mototsikllar
savdosidan tashqari
chakana savdo

2023- yil 1- sentabr holatiga ko‘ra, birlikda

Hududlar kesimida

Farg‘ona shahar	506
Qo‘qon shahar	190
Marg‘ilon shahar	148
Rishton tumani	132
Oltiariq tumani	129
Quva tumani	114
Bag‘dod tumani	111
Dang‘ara tumani	88
O‘zbekiston tumani	88
Farg‘ona tumani	85
Quvasoy shahar	77
Toshloq tumani	74
Beshariq tumani	72
Buvayda tumani	61
Qo‘shtepa tumani	60
Uchko‘prik tumani	57
Furqat tumani	47
Yozyovon tumani	38
So‘x tumani	27



2023- yil 1- sentabr holatiga ko‘ra, yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar o‘sish sur’ati 2020-yilning mos davriga nisbatan 115,7 foizni tashkil etdi. Ushbu xizmatlar sohasi tahlili shuni ko‘rsatdiki:

- mehmonxonalar, turistik oromgohlar, dam olish va ko‘ngilochar parklar yashash bo‘yicha xizmatlar yo‘nalishining asosiy faoliyati hisoblanib, 2023- yil 1- sentabr holatiga ko‘ra, yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlarning 6,8 foiz ulushini tashkil etdi;
- restoran va buyurtma bo‘yicha oziq-ovqat va ovqat mahsulotlarini yetkazish, oziq-ovqat va ichimliklar yetkazish bo‘yicha xizmatlar yo‘nalishining asosi hisoblanib, yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar sohasining 93,2 foiz ulushini tashkil etdi.

143

Yashash bo‘yicha xizmatlar



1 961


Oziq- ovqat va ichimliklar yetkazish bo‘yicha xizmatlar



2023- yil 1- sentabr holatiga ko'ra, birlikda

Hududlar kesimida


Farg'ona shahar	274
Marg'ilon shahar	131
Qo'qon shahar	77
Buvayda tumani	72
Toshloq tumani	40
Quva tumani	38
Qo'shtepa tumani	35
Rishton tumani	31
Beshariq tumani	27
Oltiariq tumani	25
Farg'ona tumani	23
Dang'ara tumani	20
Quvasoy shahar	20
Bag'dod tumani	19
O'zbekiston tumani	16
Uchko'prik tumani	12
Furqat tumani	9
So'x tumani	8
Yozyovon tumani	3



2023- yil 1- sentabr holatiga ko'ra noshirlik faoliyati, kino-videofilmlar, televizion dasturlar, fonogrammalar va musiqali yozuvlarni ishlab chiqish yo'nalishlarida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni axborot va aloqa sohasining 13,3 foizini tashkil etib, o'sish sur'ati 2022- yilning mos davriga nisbatan 84,8 foizni tashkil etdi.

Dasturlar yaratish bo'yicha faoliyat va teleko'rsatuv va radioeshittirishlar hamda aloqa yo'nalishlaridagi korxonalar soni axborot va aloqa sohasining 53,0 foizini tashkil etib, o'sish sur'ati 2022- yilning mos davriga nisbatan 65,1 foizni tashkil etdi,


Kompyuter dasturlashtirish va axborot xizmati ko'rsatish yo'nalishlarida esa korxonalar soni, axborot va aloqa sohasidagi korxona va tashkilotlarning 33,8 foizini tashkil etib, o'sish sur'ati 105,3 foizni tashkil etdi.



2023- yil 1- sentabr holatiga ko'ra, birlikda

Hududlar kesimida

Farg'ona shahar	263
Qo'qon shahar	136
Marg'ilon shahar	77
Farg'ona tumani	67
Buvayda tumani	58
O'zbekiston tumani	56
Oltiariq tumani	55
Beshariq tumani	53
Uchko'prik tumani	53
Toshloq tumani	52
Quva tumani	52
Qo'shtepa tumani	43
Rishton tumani	41
Dang'ara tumani	40
Bag'dod tumani	31
So'x tumani	30
Furqat tumani	29
Yozyovon tumani	23
Quvasoy shahar	17



Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan jami korxona va tashkilotlarning salmoqli qismi – 1 002 ta yoki 85,2 foiz ulushi tadbirkorlik subyektlari hissasiga to'g'ri kelgan.

Yo'nalishlar bo'yicha tahlil shuni ko'rsatdiki:

91,5 foiz korxonalar sog'liqni saqlash yo'nalishiga to'g'ri kelib, o'sish sur'ati 2022- yilning mos davriga nisbatan 98,9 foizni tashkil etdi;

Yashash uchun joy bilan ta'minlangan holda parvarishlash yo'nalishidagi korxonalar soni 3,1 foizni tashkil etib, o'sish sur'ati 64,3 foizni tashkil etdi;


Yashash uchun joy bilan ta'minlanmagan holda ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish yo'nalishidagi korxonalar soni ushbu sohaning 5,4 foizini tashkil etib, o'sish sur'ati 85,3 foizni tashkil etdi;



2023- yil 1- sentabr holatiga ko'ra, birlikda

Hududlar kesimida

Oltiariq tumani	333
Farg'ona shahar	271
Qo'qon shahar	202
Marg'ilon shahar	97
Quvasoy shahar	82
Toshloq tumani	77
Farg'ona tumani	55
Beshariq tumani	53
Quva tumani	53
O'zbekiston tumani	52
Dang'ara tumani	49
Uchko'prik tumani	44
Buvayda tumani	39
Qo'shtepa tumani	36
Rishton tumani	36
So'x tumani	29
Bag'dod tumani	28
Furqat tumani	28
Yozyovon tumani	22



2023- yil 1- sentabr holatiga ko'ra, tashish va saqlash xizmatlari sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar jami viloyatdagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonaning 3,8 foiz ulushini tashkil etdi.

2022- yilning mos davri bilan solishtirganda tashish va saqlash xizmatlarining yo'nalishlari bo'yicha tahlillar shuni ko'rsatdiki:

quruqlikdagi va quvur transporti yo'nalishida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning o'sish sur'ati 89,1 foizni tashkil etdi;

ombor xo'jaligi va yordamchi transport yo'nalishining o'sish sur'ati 91,0 foizni;

pochta va kuryerlik yo'nalishi 66,7 foizni tashkil etdi;

havo transporti yo'nalishida faoliyat yuritayotgan korxona va tashkilotlar soni 66,7 foizni tashkil etdi;

suv transporti yo'nalishidagi korxonalar soni 1 tani tashkil etdi.




Tadbirkorlik subyektlarining tashkiliy-huquqiy

shakli bo'yicha umumiy ma'lumot

2023- yil 1- sentabr holatiga ko'ra, birlikda

**Tadbirkorlik
subyektlari soni**

**Tadbirkorlik subyektlarining
jamiga nisbatan ulushi**




Tashkiliy-huquqiy shakl deganda, subyekt tomonidan mulkning biriktirilishi, shakllantirilishi va undan foydalanish usuli hamda uning bundan kelib chiquvchi huquqiy holati va faoliyat maqsadi tushuniladi. Shuningdek, quyidagilar bilan bog'liq masalalarni hal qilishda foydalaniladi:

- xo'jalik yurituvchi subyektlar to'g'risidagi ma'lumotlarni o'z ichiga olgan registr, reyestr va kadastrlarning axborot resurslarini shakllantirish;
- tashkiliy-huquqiy shakllar doirasida statistika ma'lumotlarini ishlab chiqish;
- idolararo axborot almashinishini ta'minlash;
- ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni va hodisalarни tahlil qilish va prognozlashtirish.


2023- yil yanvar-avgust holatiga ko‘ra, birlikda

Yillar kesimida soni

Yangi tashkil etilganlarning faoliyat
ko‘rsatayotganlarga nisbati (foizda)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida




Mas’uliyati cheklangan jamiyati – bir yoki bir necha shaxs tomonidan ta’sis etilgan, ustav fondi (ustav kapitali) ta’sis hujjatlari bilan belgilangan miqdorda ulushlarga bo‘lingan xo‘jalik jamiyatni hisoblanadi. Mas’uliyati cheklangan jamiyatning ishtirokchilari uning majburiyatlari bo‘yicha javobgar bo‘liyuldilar va jamiyat faoliyati bilan bog‘liq zararlar uchun o‘zlar qo‘sghan hissalari qiymati doirasida javobgar bo‘ladilar. Mas’uliyati cheklangan jamiyatning o‘z hissasini to‘la qo‘shtagan ishtirokchilari, jamiyat majburiyatlari bo‘yicha har bir ishtirokchi hissasining to‘lanmagan qismi qiymati doirasida solidar javobgar bo‘ladilar.

Hududlar kesimida

Farg‘ona shahar	782	19,7 %	O‘zbekiston tumani	168	16,2 %
Qo‘qon shahar	388	12,3 %	Yozyovon tumani	160	26,8 %
Marg‘ilon shahar	355	16,2 %	Beshariq tumani	157	24,1 %
Toshloq tumani	333	27,1 %	Qo‘shtepa tumani	136	16,1 %
Quva tumani	265	26,3 %	Farg‘ona tumani	131	15,7 %
Oltiariq tumani	211	20,5 %	Furqat tumani	111	22,8 %
Buvayda tumani	195	23,3 %	Bag‘dod tumani	109	21,1 %
Quvasoy shahar	188	22,8 %	Rishton tumani	104	23,7 %
Uchko‘prik tumani	181	15,2 %	So‘x tumani	89	24,7 %
Dang‘ara tumani	170	15,3 %			

2023- yil 1- sentabr holatiga ko'ra, birlikda

Yillar kesimida soni



Yillar kesimida o'sish sur'ati (foizda)

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



2023- yil 1- sentabr holatiga ko'ra faoliyat ko'rsatayotgan 35,9 mingta tijorat korxona va tashkilotlarining 22,3 mingtasi mas'uliyati cheklangan jamiyatlar ulushiga to'g'ri keladi. Mazkur jamiyatlar viloyatimizda tadbirkorlik faoliyatining eng keng tarqalgan shakli hisoblanadi.

Sohalar kesimida o'sish sur'atlarining tahlili shuni ko'rsatdiki, eng yuqori ko'rsatkich sog'lijni saqlash va ijtimoiy xizmat ko'rsatishda – 104,1 foiz, savdoda – 91,8 foiz, tashish va saqlashda – 91,4 foiz, axborot va aloqada – 88,8 foizni tashkil etdi.


Hududlar kesimida

Fatg'ona shahar	3 970	Buvayda tumani	837
Qo'qon shahar	3 145	Farg'ona tumani	837
Marg'ilon shahar	2 185	Quvasoy shahar	825
Toshloq tumani	1 229	Beshariq tumani	651
Uchko'prik tumani	1 190	Yozyovon tumani	597
Dang'ara tumani	1 113	Bag'dod tumani	516
O'zbekiston tumani	1 035	Furqat tumani	487
Oltiariq tumani	1 029	Rishton tumani	439
Quva tumani	1 008	So'x tumani	361
Qo'shtepa tumani	843		


Yangi tashkil etilgan xususiy korxonalar to‘g‘risida ma’lumotlar

2023- yil yanvar-avgust holatiga ko‘ra, birlikda

Yillar kesimida soni



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



Xususiy korxona – mulkdor yagona jismoniy shaxs tomonidan tuzilgan va boshqariladigan tijoratchi tashkilot deb e’tirof etiladi. Xususiy korxona tadbirkorlik subyektlarining tashkiliy-huquqiy shaklidir.

Xususiy korxona o‘z mulkida alohida mol-mulkka ega bo‘ladi, o‘z nomidan mulkiy va shaxsiy nomulkiy huquqlarga ega bo‘lishi hamda ularni amalga oshirishi, majburiyatlarni bajarishi, sudda da‘vogar va javobgar bo‘lishi mumkin.


2023- yil yanvar-avgust oylarida qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligida yangi tashkil etilgan xususiy korxonalar soni 2022- yilning mos davriga nisbatan 53 taga, tashish va saqlash 7 taga ko‘paygan.

Hududlar kesimida


Farg‘ona shahar	208	15,5 %	Qo‘qon shahar	24	7,3 %
Bag‘dod tumani	99	18,6 %	Uchko‘prik tumani	21	4,8 %
Quvasoy shahar	84	28,6 %	Oltiariq tumani	18	3,8 %
Buvayda tumani	41	7,9 %	Furqat tumani	18	8,1 %
Rishton tumani	34	9,4 %	Dang‘ara tumani	11	4,3 %
Quva tumani	32	6,4 %	O‘zbekiston tumani	10	4,2 %
Farg‘ona tumani	32	6,2 %	Toshloq tumani	7	1,9 %
So‘x tumani	27	6,1 %	Yozyovon tumani	1	0,6 %
Marg‘ilon shahar	27	3,9 %			
Beshariq tumani	24	7,3 %			

2023- yil 1- sentabr holatiga ko'ra, birlikda

Yillar kesimida soni



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



2023- yil 1- sentabr holatiga ko'ra, faoliyat ko'rsatayotgan xususiy korxonalar soni so'ngi besh yilda 100,0 foizga ko'paygan.

Xususiy tadbirkorlik subyektlari o'sish sur'atlarining so'ngi besh yilga nisbatan ko'payishiga savdo (131,4 foiz), sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmat ko'rsatish (126,4 foiz), yashash va ovqatlanish (118,3 foiz), hududlar kesimida esa – Farg'ona tumani (187,2 foiz) Quva (174,4 foiz), Bag'dod (158,6 foiz) va Rishton (153,2 foiz) tumanlari ta'sir ko'rsatmoqda.

Hududlar kesimida

Farg'ona shahar	1 340	Toshloq tumani	359
Marg'ilon shahar	695	Beshariq tumani	330
Bag'dod tumani	533	Qo'qon shahar	328
Buvayda tumani	521	Quvasoy shahar	294
Farg'ona tumani	513	Dang'ara tumani	255
Quva tumani	497	O'zbekiston tumani	238
Oltiariq tumani	470	Furqat tumani	222
So'x tumani	446	Qo'shtepa tumani	201
Uchko'prik tumani	433	Yozyovon tumani	172
Rishton tumani	363		

Yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar to‘g‘risida ma’lumotlar


2023- yil yanvar-avgust holatiga ko‘ra, birlikda

Yangi tashkil etilganlarning faoliyat
ko‘rsatayotganlarga nisbati (foizda)

Yillar kesimida soni



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



Oilaviy korxona – uning ishtirokchilari tomonidan tovarlar ishlab chiqarish (ishlar bajarish, xizmatlar ko‘rsatish) va realizatsiya qilishni amalga oshirish uchun ixtiyoriy asosda, oilaviy korxona ishtirokchilarining ulushli yoki birgalikdagi mulkida bo‘lgan umumiyl mol-mulk, shuningdek, oilaviy korxona ishtirokchilaridan har birining mol-mulki negizida tashkil etiladigan kichik tadbirkorlik subyektiidir. Oilaviy korxona faoliyati uning ishtirokchilari shaxsiy mehnatiga asoslanadi va tadbirkorlik subyektlarining tashkiliy-huquqiy shakllaridan biridir.

Hududlar kesimida

Quvasoy shahar	81	30,5 %	So‘x tumani	30	30,0 %
Dang‘ara tumani	79	25,9 %	Beshariq tumani	23	10,9 %
Farg‘ona shahar	62	12,8 %	Uchko‘prik tumani	21	9,1 %
Rishton tumani	53	10,3 %	Marg‘ilon shahar	21	7,5 %
Qo‘qon shahar	51	15,4 %	Bag‘dod tumani	20	7,5 %
Oltiariq tumani	49	10,8 %	Qo‘shtepa tumani	16	11,7 %
O‘zbekiston tumani	39	13,2 %	Toshloq tumani	15	8,9 %
Furqat tumani	35	15,7 %	Buvayda tumani	12	6,7 %
Farg‘ona tumani	31	14,8 %	Yozyovon tumani	9	15,3 %
Quva tumani	30	16,9 %			


2023- yil 1- sentabr holatiga ko‘ra, birlikda

Yillar kesimida soni



Yillar kesimida o’sish sur’ati (foizda)

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



Yuridik shaxs sifatida davlat ro‘yxatidan o’tib, faoliyat ko‘rsatayotgan oilaviy korxonalar soni so‘ngi uch yilda 749 taga ko‘paygan.


Bu esa quyidagi sohalardagi korxonalar: savdoda – 886 tadan 1 649 taga (o’sish 763 ta), yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar – 554 tadan 676 taga (o’sish 122 ta) sonining sezilarli oshishi bilan izohlanadi.

Hududlar kesimida

Rishton tumani.	513	Furqat tumani	223
Farg‘ona shahar	485	Beshariq tumani	211
Oltiariq tumani	454	Farg‘ona tumani	209
Qo‘qon shahar	332	Quva tumani	178
Dang‘ara tumani	305	Buvayda tumani	178
O‘zbekiston tumani	295	Toshloq tumani	168
Marg‘ilon shahar	281	Qo‘shtepa tumani	137
Quvasoy shahar	266	So‘x tumani	100
Bag‘dod tumani	266	Yozyovon tumani	59
Uchko‘prik tumani	231		

**Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxona
va tashkilotlar to'g'risida ma'lumot
2023- yil yanvar-avgust holatiga ko'ra, birlikda**

Yillar kesimida soni



Yangi tashkil etilganlarning faoliyat
ko'rsatayotganlarga nisbati (foizda)

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida




Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar – korxonaning ustav jamg'armasida norezidentlar, chet el yuridik shaxslari (chet el firmalarining filial va bo'linmalari), chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar mulki ishtirokidagi korxonalar hisoblanadi.

Hududlar kesimida

Farg'ona shahar	19	13,1 %	O'zbekiston tumani	2	11,1 %
Bag'dod tumani	5	38,5 %	Marg'ilon shahar	2	7,1 %
Beshariq tumani	4	28,6 %	Qo'shtepa tumani	1	20,0 %
Uchko'prik tumani	4	21,1 %	Farg'ona tumani	1	5,3 %
Quvasoy shahar	3	10,0 %	Furqat tumani	1	11,1 %
Quva tumani	2	10,0 %	Qo'qon shahar	1	2,0 %
Toshloq tumani	2	20,0 %			

2023- yil 1- sentabr holatiga ko'ra, birlikda

Yillar kesimida soni



Yillar kesimida o'sish sur'ati (foizda)

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



Keyingi besh yilda xorijiy kapital ishtirokida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni 1.8 barobarga oshdi.

Yetakchi o'rinni 113 ta korxonada to'liq yoki qisman ulushi mavjud bo'lgan Rossiya Federatsiyasi egallagan. Bu viloyatda xorijiy kapital ishtirokida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar umumiy sonining 25,6 foiz ulushini tashkil etadi. Shuningdek, Farg'onaviyoti iqtisodiyotiga o'z kapitalini kiritayotgan Janubiy Koreya (ulushi 7,3 foiz), Qirg'iston (ulushi 5,7 foiz), Tojikiston (ulushi 3,6 foiz) va Qozog'iston (ulushi 5,7 foiz) davlatlari ham yetakchilar hisoblanishadi.

Hududlar kesimida

Farg'onah shahar	145	Beshariq tumani	14
Qo'qon shahar	49	Bag'dod tumani	13
Quvasoy shahar	30	Rishton tumani	10
Marg'ilon shahar	28	Toshloq tumani	10
Quva tumani	20	Furqat tumani	9
Uchko'prik tumani	19	So'x tumani	7
Farg'onah tumani	19	Buvayda tumani	6
Oltiariq tumani	18	Yozyovon tumani	6
O'zbekiston tumani	18	Qo'shtepa tumani	5
Dang'ara tumani	15		

2023- yil yanvar-avgust holatiga ko‘ra, birlikda

	Hududlar nomi	soni
	Rossiya Federatsiyasi	9
	Xitoy Xalq Respublikasi	9
	Tojikiston Respublikasi	3
	Turkiya Respublikasi	2
	Turkmaniston Respublikasi	3
	Germaniya Federativ Respublikasi	3
	Janubiy Koreya Respublikasi	3
	Buyuk Britaniya	2
	Hindiston Respublikasi	1
	Belorussiya Respublikasi	1
	boshqalar	11

O‘zbekistonda iqtisodiy o‘sishni jadallashtirish, xalqaro aloqalarni kengaytirish va to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar uchun qulay huquqiy muhit yaratish bo‘yicha keng qamrovli iqtisodiy va ijtimoiy islohotlar olib borilmoqda. Mamlakatning strategik geografik joylashuvi, boy va xilma-xil tabiiy resurslari o‘sish uchun ulkan imkoniyatlarni namoyon etadi. O‘zbekiston hukumati o‘z fuqarolarining farovonligini oshirish, biznesni rivojlantirish va zamonaviy texnologiyalarni joriy etishni rag‘batlantirish maqsadida, chet el investitsiyalarini ko‘paytirishga ustuvor ahamiyat bermoqda.

2023- yil 1- sentabr holatiga ko‘ra, birlikda

	Hududlar nomi	soni
	Rossiya Federatsiyasi	116
	Janubiy Koreya Respublikasi	32
	Qirg‘iziston Respublikasi	27
	Tojikiston Respublikasi	18
	Qozog‘iston Respublikasi	11
	Ozarbayjon Respublikasi	8
	Belorussiya Respublikasi	5
	Turkmaniston Respublikasi	3
	Ukraina Respublikasi	2
	boshqalar	219

O‘zbekistonning yangi tashqi siyosatini asosiy xususiyatlari bu ochiqlik, uzoq muddatli barqaror rivojlanishning ustuvor yo‘nalishlariga e’tibor berish, qo‘shni davlatlar bilan yaxshi qo‘shnichilik munosabatlarini mustahkamlash, xalqaro hamkorlikni beg‘araz asosda kengaytirishdir.

Buning samarasida, bugungi kunda O‘zbekiston iqtisodiyotning turli tarmoqlarida tadbirkorlik faoliyatini yuritish va investitsiyalarni jalb qilish uchun zarur bo‘lgan ichki sharoitlarni yaratish jarayonini rag‘batlantirishga qaratilgan izchil islohotlar amalga oshirilayotgani kuzatilmoqda.

Shuningdek, xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalardan 255 tasi qo‘shma korxonalar, 186 tasi esa xorijiy korxonalar hisobiga to‘g‘ri keldi.

2023- yil 1- sentabr holatiga ko‘ra, birlikda

xorijiy korxonalar

qo‘shma korxonalar

64 Farg‘ona shahar **81**

28 Qo‘qon shahar **21**

8 Quvasoy shahar **22**

12 Marg‘ilon shahar **16**

10 Quva tumani **10**

8 Uchko‘prik tumani **11**

8 Farg‘ona tumani **11**

6 Oltiariq tumani **12**

5 O‘zbekiston tumani **13**

7 Dang‘ara tumani **8**

11 Beshariq tumani **3**

2 Bag‘dod tumani **11**

2 Rishton tumani **8**

4 Toshloq tumani **6**

4 Furqat tumani **5**

- So‘x tumani **7**

3 Buvayda tumani **3**

4 Yozyovon tumani **2**

- Qo‘shtepa tumani **5**

2023- yil 1- sentabr holatiga ko‘ra, birlikda



So‘nggi yillarda O‘zbekiston iqtisodiyotni jadal o‘zgartirishni boshdan kechirdi va xalqaro hamjamiyatda ochiqlik, innovatsiya va biznes va sarmoyaviy to‘siqlarni bartaraf etishda qat’iylik timsollaridan biri sifatida tobora ko‘proq e’tirof etilmoqda.

Demak, xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar sonining ko‘payishi, avvalambor, mamlakatdagi siyosiy barqarorlik va investitsiya faoliyatining huquqiy asoslari takomillashtirilgani bilan bog‘liq.

Korxona va tashkilotlarning yagona davlat registri – real vaqt rejimida yangilab boriladigan ma’lumotlardan iborat bo’lgan axborot-ma’lumotnomalar tusidagi avtomatlashtirilgan tizim hisoblanib, yagona klassifikatsiyalar tizimi asosida korxonalar va tashkilotlarning davlat hisobini va ularni identifikasiyalashtirishni ta’minlaydi.

Ro‘yxatga olingan – ro‘yxatdan o‘tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan hamda yuridik shaxslarning davlat reestriga mavjud bo‘lgan yuridik shaxslar (faoliyati tugatilgan yuridik shaxslardan tashqari).

Faoliyat ko‘rsatayotgan – ro‘yxatdan o‘tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan hamda moliya-xo‘jalik faoliyatini amalga oshiriyulotganligi yoki tugatish jarayonida ekanligi to‘g‘risidagi ma’lumot kelib tushmagan yuridik shaxslar.

Yangi tashkil etilgan – ro‘yxatdan o‘tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda yuridik shaxslarning davlat reestriga yangidan kiritilgan yuridik shaxslar.

Yuridik shaxslarning faollik darajasi – ma’lum bir davrda faoliyat ko‘rsatiyulotgan yuridik shaxslarning jami ro‘yxatdan o‘tgan yuridik shaxslarga nisbatining foizdagi ifodasi.

Kichik korxona va mikrofirmalar – O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016- yil 24- sentabrdagi “Iqtisodiy faoliyat turlarini tasniflashning xalqaro tizimiga o‘tish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 275- son qarorining 1- ilovasiga muvofiq, kichik tadbirkorlik subyektlariga tegishli bo‘lgan korxonalar va tashkilotlar.

Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar – norezidentlar ishtirokidagi korxonalar, xorijiy yuridik shaxslar (xorijiy firmalarning filiallari va bo‘limlari), korxonaning ustav fondida chet el fuqarolari va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar ishtirok etgan korxonalar.

Ma’lumotlar O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining Davlat xizmatlari markazi ma’lumotlar bazasi asosida 2023- yil 1- sentabr holatiga ko‘ra (fermer va dehqon xo‘jaliklarisiz) shakllantirildi.



Korxona va tashkilotlarning yagona davlat registri

Tashqi foydalanuvchilar, bevosita Statistika agentligining www.stat.uz rasmiy saytida real vaqt rejimida, so‘ralayotgan yuridik shaxsning (STIR) kodini kiritib, axborotlarni bepul olishlari mumkinligi belgilab qo‘yilgan.



Statistik registrlarni yuritish
va tizimli xizmat
ko‘rsatish bo‘limi
Tel.:(73) 244-65-76